



### O'ZBEK-QORAQALPOQ ADABIY ALOQALARI: KECHA VA BUGUN

**Abdullayev Xotamjon Xamroyevich,**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida assistenti,*

*Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.*

*e-mail: [abdullaevhotamjon0719@gmail.com](mailto:abdullaevhotamjon0719@gmail.com)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20656816>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi adabiy aloqalarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda badiiy tarjimaning ushbu jarayondagi o'rni tahlil qilingan. XX asr boshlaridan boshlab ikki qardosh xalq adabiyotlari o'rtasida yuzaga kelgan ijodiy hamkorlik, tarjimachilik an'analari, adiblarning o'zaro ta'siri va milliy adabiyotlarning boyishiga xizmat qilgan omillar ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, maqolada o'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari xalqlar do'stligi, madaniy yaqinlik va ma'naviy birlikni mustahkamlovchi muhim omillardan biri ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari, badiiy tarjima, tarjimashunoslik, adabiy hamkorlik, milliy kolorit, adabiyotlar do'stligi, qardosh xalqlar, madaniy aloqalar.

**Аннотация.** В данной статье анализируются становление, этапы развития литературных связей между узбекским и каракалпакским народами, а также роль художественного перевода в этом процессе. Научно освещены творческое сотрудничество, возникшее между литературами двух братских народов с начала XX века, традиции перевода, взаимодействие писателей и факторы, способствовавшие обогащению национальных литератур. В статье также обосновывается, что узбекско-каракалпакские литературные связи являются одним из важных факторов, укрепляющих дружбу народов, культурную близость и духовное единство.

**Ключевые слова:** узбекско-каракалпакские литературные связи, художественный перевод, переводоведение, литературное сотрудничество, национальный колорит, дружба литератур, братские народы, культурные связи.

**Abstract.** This article analyzes the formation and development stages of literary relations between the Uzbek and Karakalpak peoples, as well as the role of literary translation in this process. The creative cooperation that has arisen between the literatures of the two fraternal peoples since the beginning of the 20th century, the traditions of translation, the interaction of writers, and the factors that contributed to the enrichment of national literatures are scientifically covered. The article also substantiates that Uzbek-Karakalpak literary relations are one of the important factors strengthening the friendship of peoples, cultural affinity, and spiritual unity.

**Keywords:** Uzbek-Karakalpak literary relations, literary translation, translation studies, literary cooperation, national color, friendship of literatures, fraternal peoples, cultural relations.

**Kirish va dolzarbligi.** Qadim Turkiston va Amudaryo sohillarida o'zbek va qoraqalpoq qavmlari azaldan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy muhitda istiqomat qilib kelayotgan, taqdiri va kelajagi yagona bo'lgan qondosh va jondosh xalqlar sanaladi. O'tmishda ular yashagan va hozir ham yashayotgan mintaqalar yaqin va tutash bo'lishi bilan birga tili, e'tiqodi, dini va hayot tarzi ham bir-biriga juda yaqindir.



O‘zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari, uning tub ildizlarini yanada chuqurroq o‘rganish har ikkala xalq adabiyotshunoslari oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. O‘zaro ma’naviy-badiiy tafakkurni yanada mustahkamlash yo‘lida qilingan ishlar xalqlarning har jihatdan yaqinlashuvida va jiplashuvida muhim rol o‘ynaydi.

E’tirof qilish kerakki, mazkur ikki xalq orasidagi adabiy aloqalar, yozuvchi va shoirlar o‘rtasidagi shaxsiy, do‘stona munosabatlarning shakllanishi, milliy adabiyotlarda “qoraqalpoq va o‘zbek” mavzularning jarayonga aylanishi, milliy adabiy asarlarning o‘zaro tarjima qilinishi, adabiy aloqa va tarjimashunoslikni yuqori pog‘onaga ko‘tardi. Adabiy aloqalarning va madaniy takomillashuvining yuqori darajaga yetishida tarjimashunoslikning o‘rni nihoyatda katta bo‘ldi.

**Metodlar va o‘rganilish darajasi.** O‘zbek va qoraqalpoqlar necha yuzlab yillardan beri yagona turmush tarzini boshdan kechirib kelishmoqda. Bu ikki xalq orasidagi adabiy aloqalar qadimdan mavjud. Bu ikkala xalq adabiy merosining o‘zaro yaqinligini, adabiy aloqalarni yaqin o‘tmishda tadqiq qilgan olimlardan Ismoil Sag‘itov, Najim Davqarayev, Marat Nurmuhammedov, Sirojiddin Axmetov, Kamol Mambetov, Baxtiyor Qurbanbayev, Karimboy Quramboyev, Fayzulla Salayev, Komil Tashanov kabilarning bir qancha kitoblari, risolalari, ilmiy maqolalari mavjud. O‘zbek tarjimashunosligida esa, ushbu fanning asosini solgan buyuk olim G‘aybulla As-Salom, Jumaniyoz Sharipov, Najmiddin Komilov kabi tarjimashunoslarning xizmatlari katta.

**Tadqiqot natijalari.** O‘zbek-qoraqalpoq adabiy hamkorligining dastlabki sahifasi XX asr o‘zbek adabiyotining vakillaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy faoliyati bilan bog‘liq. Malumki, Hamza 1922-1924-yillarda Xo‘jayli shahrida istiqomat qiladi va bu yerda maktab-internat tashkil qilib, unda dastlab o‘qituvchi, so‘ngra mudirlik vazifasida ishlaydi. Shu bilan birga bu yerda qoraqalpoq, o‘zbek, turkman va qozoq bolalari ichidan yetishib chiqayotgan yosh iste’dod sohiblariga ustozlik va homiylik qiladi.

O‘zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalariga tarjimachilik nuqtayi nazaridan ko‘z tashlamoqchi bo‘lsak, xuddi mana shu yillarda tarjimachilik katta bir soha sifatida kurtak yozdi. 1939-yilda Hamza Hakimzoda Niyoziyning 50 yilligi Qoraqalpog‘istonda ham juda katta tantana sifatida nishonlandi. “Qizil Qoraqalpog‘iston” gazetasining shu yilgi 24-iyul sonidagi “Hamza Hakimzoda” peshlavhasi ostidagi butun bir sahifa Hamzaga bag‘ishlandi. Uning hayoti va ijodi masalalariga bag‘ishlangan maqolalar va shoir ijodidan namunalar qoraqalpoq tiliga o‘girilgan holda bosib chiqarildi.

Bular o‘zbek adabiyotidan qoraqalpoq tiliga qilinayotgan ilk tarjimalar edi. Shu bilan o‘zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalarining katta va yorqin bir sahifasi – tarjimachilikka asos solindi. Hamzaning «Salom ayting», «Sevikli Vatan», «Biz ishchimiz» kabi qator she’rlarini qoraqalpoq tiliga shu davrning taniqli adabiyotshunos va shoirlari N.Japaqov, J.Oymirzayev, Maryam Qosimovalar qoraqalpoq tiliga tarjima qilishganlar. Tarjimaning



sifati esa, ancha yaxshi chiqqan. Ular originalga ancha yaqin bo‘lib, uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini to‘la saqlab qolgan. Keyinchalik ham Hamza asarlari qoraqalpoq tiliga tez-tez tarjima qilinib turdi. Bu fikrimizning isboti sifatida 1959-yilda «Qoraqalpog‘iston» nashriyotida chop qilingan Hamzaning «Tanlangan asarlar» to‘plamini keltirishimiz mumkin. Bu to‘plam qoraqalpoq she‘rxonlarini Hamza ijodi bilan yanada yaqinroq tanishtirdi.

Darhaqiqat, XX asr ijtimoiy-siyosiy tuzumi davrida o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari madaniyati tarixida porloq sahifalar ochildi. Ilgaridan yaqin munosabatda bo‘lgan ushbu xalqlar chinakam qardosh-jondosh xalqlarga aylandi.

XX asrning 50-60-yillarda tarjimachilik borasida yanada samarali ishlar qilindi. O‘zbek shoir va yozuvchilaridan Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, G‘.G‘ulom, Oybek, Zulfiya singari ko‘zga ko‘ringan yirik namoyandalar asarlari qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi, to‘plamlar ko‘rinishida, gazeta va jurnallar sahifalarida e‘lon qilindi. O‘z navbatida J.Oymirzayev, I.Yusupov, T.Qaipbergenov kabi qoraqalpoq adabiyoti vakillarining qator asarlari o‘zbek tiliga o‘girilib, Toshkent nashriyotlari, markaziy gazeta-jurnallari sahifalarida chop etildi.

Qoraqalpoq shoirlariga G‘afur G‘ulom va Hamid Olimjon asarlari juda katta tasir ko‘rsatdi. Shoir va olim N.Japakov «Qoraqalpoq va o‘zbek birga tug‘ishganlar» she‘rida har ikkala xalq adabiy va madaniy aloqalarining qadim tarixga ega ekanligiga ishora qilib:

Berdaq Navoiyni ustoz deb bildi,  
Undan saboq oldi hayot yo‘lida.  
G‘afur ham Abbozni shu taqlid ko‘rdi,  
Ulgi etdi shoirlarning oldida, -

degan bo‘lsa, 80-yillarga kelib J.Oymirzayev «G‘afur G‘ulomga» she‘rida she‘riyat chamanida o‘zgacha bir bo‘ston yaratgan ustoz obrazini mahorat bilan tasvirlaydi:

O‘zbek o‘g‘li – ulug‘ Vatan farzandi,  
G‘afur G‘ulom bir umrlik qarindosh.  
Bir bayroq ostida mag‘rur va tanti,  
Shoir yuksaklarga ochdi keng quloch.

Darhaqiqat, G‘afur G‘ulomning turli janrdagi qator asarlari qoraqalpoq adabiyotining yuksalishiga samarali ta’sir ko‘rsatdi. Ijodkorlar bir-birlaridan manaviy va ijodiy oziq olganligini inkor etmagan holda, minnatdorchilik tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilgan bi-birlariga atab she‘rlar yozdilar.

Shuningdek, Oybek ijodi ham qoraqalpoq adabiyoti taraqqiyotiga ijobiy tasir qilgan omillardan biri bo‘ldi. Qoraqalpoq shoir va yozuvchilarigina emas, balki bu yerdagi barcha ziyolilar Oybekni juda hurmat qilishar va uning ijodini sevar edilar. Nukusda 1954-yilda qoraqalpoq tilida nashrdan chiqqan «O‘zbekiston shoirlari» she‘riy to‘plami, 1959-



yilda chop etilgan «O‘zbek yozuvchilari» nasriy asarlari to‘plamlarida Oybekning «Raisa», «Kun kelar» kabi she’rlari va nasriy asarlaridan parchalar bosilib chiqdi. 1966-yilga kelib, Oybekning «Qutlug‘ qon» romani «Adiwli qan» nomi bilan bosmadan chiqdi.

Oybek va uning ijodining qoraqalpoq adabiyotiga tasiri haqida qoraqalpoq shoiri G‘alim Seytnazarov 1963 yil «Amudaryo» jurnalining 3-sonida «Unutilmas kunlar» degan maqolasida shunday yozadi:

“Oybek yirik talant egasi sifatida, nafaqat o‘zbek, balki qoraqalpoqlarning ham sevimli yozuvchisiga aylanib qolgan...”.

Shuningdek, ushbu davrda qoraqalpoq mavzuida o‘zbek tilida asarlar yozishga ham katta e‘tibor berildi. Mirtemirning «Qoraqalpoq daftari» she’rlar turkumi va «Surat» dostoni, Asqad Muxtorning «Qoraqalpoq qissasi», «Chinor» romanida, Jonrid Abdullaxonovning «Borsa kelmas» romani singari turli janrga mansub asarlarda qoraqalpoq xalqi hayotining turli jihatlari o‘ziga xos tarzda aks ettirildi.

Qoraqalpoq va o‘zbek tillari orasida o‘zaro tarjima qilish keyingi yillarda ayniqsa avjiga chiqdi va doimiy ananaga aylanib qoldi. Bu albatta, xalqlarimiz ruhiyatida hosil bo‘lgan yuksak ma’naviy ehtiyoj va talablarning samarasidir.

1980-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyotida bosilib chiqqan qoraqalpoq shoirlarining «To‘qqiz to‘rg‘ay» nomli to‘plamining nashr etilishini shery tarjimachilik tarixida muhim bir bosqich bo‘ldi deyish mumkin. Ushbu to‘plam keng kitobxonlar ommasi va adabiy jamoachilik tomonidan iliq kutib olindi. To‘plamga qoraqalpog‘istonlik to‘qqiz nafar talantli shoirlar Sog‘inboy Ziyauov, To‘lepbergen Matmuratov, Uzaqboy Pirjanov, Kengesboy Rahmanov, Ulmambet Xo‘janazarov, Guliston Shomuratova, To‘liboy Qabulov, Marat Qarabayev va Rasbergen Jabbarbergenovlarning saralangan she’rlari kiritilgan edi. To‘plamdagi she’rlarda qoraqalpoq diyori, tabiatiga o‘xshash keng fe‘llik qoraqalpoq xalqining orzu-istaklari, his-tuyg‘ulari, yoshlik, go‘zallik, do‘stlik va muhabbat haqidagi o‘y-kechinmalari o‘ziga xos tarzda badiiy ifodasini topgan. She’rlarni Xurshid Davron, Sulaymon Rahmon, Amirqul Po‘lkan, Mirpo‘lat Mirzayev kabi iste’dodli shoirlar tarjima qilishgan. Shuningdek, J.Oymirzayev, I.Yusupov va T.Qaipbergenov kabi mashhur adiblarning ko‘pgina asarlari mustaqil kitob, ko‘ptomliklar tarzida o‘zbek tiliga tabdil qilindi. Bu asarlar tarjimasida Omon Matjon, Lola Tojiyeva kabi tarjimonlarning xizmatlari katta bo‘ldi.

Istiqloq davrida o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotshunosligida adabiy aloqalarning o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ikki qardosh xalq adabiyotining o‘zaro hamda boshqa xalqlar adabiyotlari bilan ko‘p asrlik aloqalari, milliy adabiyotlarning mazmuniy va shakliy boyishi, yangi adabiy janrlar hamda uslubiy izlanishlar kabi muhim masalalarning asosiy ildizlari va manbalarini chuqur tadqiq etish katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu adabiyotlarning kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashda



muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, qoraqalpoq va o'zbek xalqlari hayotiga bag'ishlangan badiiy asarlar yaratish jarayonlari, Qoraqalpog'istonda yashab ijod qilayotgan o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi shoir va yozuvchilarning ijodiy o'ziga xosligi, adabiy aloqalar hamda o'zaro badiiy tarjimalar tajribasini ilmiy jihatdan o'rganish ikkala xalq adabiyotshunosligining dolzarb kun tartibidagi muhim muammolaridan biri sanaladi. Shuningdek, o'zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalarida ikki millat ijodkorlarining bir-birlarining hayoti xususida badiiy asarlar yaratish an'anasining uzluksiz tarzda davom etishi nafaqat adabiy hamkorlik, ayni paytda, ikki xalq do'stligining yuksalishiga ham hissa qo'shishi bor haqiqat. Masalan, Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari", Asqad Muxtorning "Qoraqalpoq qissasi", S.Akbaryning "Suluv suluv emas, suygan suluv" turkumi yoki bo'lmasa, J.Aymurzayev, I.Yusupov, O'.Abdurahmonov, K.Karimov va G.Matyoqubovalarning o'zbek xalqining turmushiga oid nodir asarlari adabiyotlar va xalqlar do'stligiga, birdamligiga xizmat etmoqda. Olima G.Qurambayeva to'g'ri ta'kidlaganidek, "Ikki adabiyot ijodkorlarining o'zaro mavzu almashuvi, ya'ni o'zbek shoirlarining qoraqalpoq mavzusida, qoraqalpoq shoir va yozuvchilarining O'zbekiston hayoti to'g'risida asarlar yozishi bilan bog'liq jarayon ham o'zbek va qoraqalpoq yoki qoraqalpoq va o'zbek adabiy aloqalarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ikki adabiyot aloqalari to'g'risida so'z boshlanishi bilan qoraqalpoq shoir va yozuvchilarining O'zbekiston to'g'risida yoki o'zbek ijodkorlarining Qoraqalpog'iston haqidagi asarlari tilga olinishi tasodif emas". Shunisi muhimki, ayni paytda biz istiqomat qilayotgan Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida qoraqalpoq-o'zbek adabiy aloqalarini o'rganish va targ'ib qilish g'oyat katta ilmiy va ma'naviy ehtiyoj hisoblanadi. Negaki, respublikaning juda ko'pchilik hududlarida har ikki aholi vakillari aralash holda yashashadi, bir maktab va ishxonalar havosidan nafas olishadi. Adabiy aloqalarni o'rganish, uning natijalarini el orasida tashviq qilish ushbu xalqlar o'arasidagi azaliy do'stlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. XXI asr boshlariga kelib, o'zbek adabiyotini qoraqalpoq tiliga, qoraqalpoq asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda yangi bosqich paydo bo'ldi. Bu sohaga munosib ulush qo'shayotgan tarjimonlardan biri, shubhasiz, Rustam Musurmondur. U Ajiniyoz, I.Yusupov she'rlarini, K.Karimov, Sh.Usnatdinov, O'.Abdurahmonov, M.Nizonov kabi mashhur yozuvchilarning nasriy asarlarini, B.Genjemuratov, Sh.Ayapov singari shoirlarning she'riy asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan o'girib nashr ettirdi. Aytish o'rinliki, uning tarjimalari saviyasi, sifat darajasi ham turlicha. Mahorat bilan tarjima qilinganlari ham talaygina. Poetik jihatdan bo'sh chiqqan tarjima asarlar ham yo'q emas, albatta. "Tarjimon ikki milliy adabiyot o'rtasidagi aloqachi, vositachi hisoblanadi. Voqealar oqimini original asar muallifi qanday tasavvur qilsa, u ham shu oqim ichiga avtor singari kirib borishi lozim". Shunday yaxshi tarjima qilingan asarlardan biri bu – Kengesboy Karimovning "Og'abiy" romanidir.



Tarjimon qoraqalpoq xalqining milliy koloriti, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, cho‘l tabiatini va hokazolarni mukammalona va maromiga yetkazib tarjima qila olgan. Biroq shu bilan birga, tarjimonning qoraqalpoq tilini puxta bilmasligi, so‘z va iboralarni qo‘llashda ba‘zi nuqsonlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘lgan. Qizig‘i, bu kabi qusurlar, ulkan tarjimaning umumiy saviyasini tushirib yubormasligini ham alohida qayd etish zarur. Chunki R.Musurmon O‘zbekistonda qoraqalpoq adabiyotini eng ko‘p tarjima qiladigan tajribali mutarjim sifatida alohida mavqeiga ega. Kengesboy Karimovning “Og‘abiy” roman-dilogiyasi tarjimasini muvaffaqiyatli chiqqanligi, “Og‘abiy” – K.Karimovning tarixiy romanchilikdagi jiddiy yutuqlaridan biri ekanligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan e‘tirof etilgan. Qoraqalpoq nasri T.Qaypbergenovdan keyin yana bir tarixiy roman bilan boyidi. Qoraqalpoq xalqi tarixida o‘chmas iz qoldirgan Yernazarbiy, Mamanbiy, Oydo‘sbey kabi tarixiy shaxslarning badiiy obrazlari qatoriga yana bir tarixiy shaxs Yerejep-Og‘abiy badiiy obrazi qo‘shilgan yozuvchi, qolaversa, qoraqalpoq adabiyotining ham katta yutug‘iga aylandi.

“Og‘abiy” romani Rustam Musurmon tomonidan tarjima qilingandan keyin tarjimashunoslik va adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti aylandi. Jumladan, bu borada yosh adabiyotshunoslardan A.Allambergenovning ““Og‘abiy” romanida tarixiy haqiqat va milliy kolorit talqini” va G‘.Atadjanovning “Tarjimada milliy o‘ziga xoslik” maqolalarida qoraqalpoq xalqining milliy realiyalari, urf-odatlarini ifodalovchi so‘z va turg‘un birikmalarning o‘zbek tilidagi talqinlarini asl matndagi variantlari bilan qiyosiy aspektida ilmiy muhokamaga tortgan.

**Xulosa.** Adabiy aloqalar adabiyot rivojidadagi muhim vosita ekan, bu jarayonni har taraflama rivojlantirish, unutilib borayotgan ezgu an‘analarni, masalan, adabiyot va san‘at haftalıkları, turli qardosh xalqlarga mansub ijodkorlar uchrashuvlarini, jonli suhbatlarni doimiy o‘tkazish, badiiy tarjimachilikni yanada faollashtirish, saviyasini yaxshilash kabi omillarga e‘tibor qaratish, targ‘ib va tashviq etish bugunning zaruriy adabiy ehtiyojlaridan biri ekanligini anglash zarur bo‘ladi. Binobarin, “Adabiyotlar do‘stligi – xalqlar do‘stligi” degan ulug‘vor shior va g‘oya asosida ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyati yuksak, tom ma‘nodagi xalqlar do‘stligiga xizmat qiladigan badiiy asarlar yaratish va ularni tarjima qilish ijodkorlar va tarjimonlar zimmasidagi muhim mas‘uliyatlardandir. Do‘stlik va qardoshlikni qamrab olgan, poetik mukammal asarlar bugunning kun tartibidagi muhim talabi sifatida qaraladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kenesboy Karimov. Og‘abiy. Roman. Toshkent.: 2020.
2. Kurambayeva G. O‘zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari (adabiy aloqa, o‘zaro ta‘sir va badiiy tarjima). Filol.fan.dok. disser. - Nukus,2023. B.17.
3. F.Сейтназаров. УМЫТЫЛМАС КУНЛЕР. // «Амударё» журналі. 1963, №3
4. Salomov G‘ va boshqalar. “Tarjima mahorati”. T; Fan nashriyoti.1979-yil.